

Tairova Madinabonu Baxtiyarovna

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)madinatairova1988@gmail.com

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH– PEDAGOGIK MUAMMO CIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish–pedagogik muammolari va dolzarb ahamiyati, shuningdek ta'lim-tarbiyaning yangi g'oya texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tadbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi yoritilgan. Maktabgacha ta'lim yo'nalish talabalarini fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishda kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmi shakl va metodlari berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarbiyachi, kasbga tayyorlash, kasbiy kompetensiya, rivojlantirish, pedagogik, muammo, dolzarb, maktabgacha ta'lim, ahamiyati, ta'lim va tarbiya jarayoni.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЬ – КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие профессиональных компетенций у будущих педагогов – педагогические проблемы и актуальная значимость, а также проблема самостоятельного создания идей новых технологий образования и формирования навыков их реализации. Приведены формы и методы механизма подготовки учащихся дошкольного образования к профессиональной деятельности по развитию их организаторских качеств.

Ключевые слова: будущий воспитатель, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, развитие, педагогическое, проблемное, актуальное, дошкольное образование, значимость, учебно-воспитательный процесс.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL ACTIVITIES IN FUTURE EDUCATORS–AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. This article covers the development of professional competencies in future educators–pedagogical problems and current importance, as well as the problem of independent creation of new idea technologies of education and the formation of skills for their implementation. Forms and methods of the mechanism of preparation of students of preschool education for professional activities in the development of their organizational qualities are given.

Keywords: future educator, professional training, professional competence, development, pedagogical, problem, current, preschool education, importance, educational and educational process.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Kasbga tayyorlashda ta'lim ko'lamini kengaytirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi"[14;38-b]. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy bilimlarini rivojlantirish masalalarini, ularda mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, shuningdek ta'limni innovatsion texnologiyalarini yaratish va ularni tatbiq eta olishni shakllantirishni talab etmoqda[5;17-b]. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatimizning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi"[1], degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi. Ilk va maktabgacha yoshda berilgan sifatli ta'lim

kelajakda katta imkoniyatlarni yaratadi va mamlakatning ijtimoiy hamda iqtisodiy farovonligiga muhim hissa qo'shadi. Demak, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishga sarflangan mablag'lar kelajakda o'zini to'liq oqlaydi [2].

Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-tarbiyachilarga katta mas'uliyat yuklaydi. 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning 39-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari: bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi; pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi; maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi; o'z malakasini oshirishi; o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart, deyilgan [3].

Tarbiyachini ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish, to'g'ri tashkil qilish, o'tkazish va baholashni sifatli bajarilish asosiy kasbiy kompetensiyalaridandir [16;32-b]. Individual tarzda bolalarni rivojlantirish va qiziqishlarini kengaytirish [8], imkoniyatlarni taqdim etuvchi qulay muhitni ta'minlash uchun tarbiyachi muayyan kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar pedagogik paradigmalarida talaba yoshlarda kasbiy ma'naviy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirishga katta e'tibor berilayotganligi barchaga ayon. Shakllantirilgan kasbiy tayyorgarlik kompleks asosda rivojlantirilib, kelajakda maktabgacha ta'lim tizimiga samarali ta'sir o'tkazishi uchun bu tayyorgarlikni uzluksiz, oliy ta'lim uyg'unligida amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan samarali ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni bo'lajak tarbiyachi sifatida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, uning uslubiy ta'minotini kengaytirish zarurati mavjud. Maktabgacha ta'lim tizimi- umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning ajralmas, muxim bo'g'inidir. Bolalarga ta'lim bilan bir qatorda tarbiya berish, ularni ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak [16;25-b], u holda ularning matematik tasavvur rivojlanishi bilan shug'ullanish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi rivojlanayotgan axborot-texnologiya asrida ilm-fan va texnikaning zamonaviy tarmoqlari shaxs va jamiyat munosabatlari, raqamli iqtisodiyot kabi sohalar jadal rivojlanishi munosabati bilan matematikaning xam roli ortdi va yanada muhim ahamiyat kasb etdi [16;18-b]. Shu ma'noda bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini bo'yicha kasbiy tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish ilmiy muammo sifatida yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar ta'limning barcha bosqichlarida foydalaniladigan o'qitish tamoyillarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi-yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar bo'lgan shaxsdir. Shunday ekan, zamonaviy tarbiyachi ma'naviy-axloqiy madaniyati orqali atrofdagilarga o'rnak bo'lishi bilan bir qatorda yetuk mutaxassis sifatidagi pedagogik mahoratini o'qitish mashg'ulotlarida, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda namoyon eta olishi zarur.

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida prezident Shavkat Mirziyoevning qarori imzolandi. Ushbu qaror maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning bolalarda bilim savodxonligini rivojlantirish bo'yicha kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishni muxim vazifa sifatida belgilab berdi [15;42-b].

Tarbiyachining yuqori pedagogik mahorati ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashga zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi o'rnini xam belgilab beradi[16;59-b] va tarbiyalanuvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirishda amaliy harakatlarni tashkil etish, pedagogik faoliyatda kuzatilayotgan xatolardan xoli bo'lishi, tarbiyalanuvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Kasb, mutaxassislik tushunchalari bilan bir qatorda ixtisoslik tushunchasi ham keng qo'llaniladi. Ixtisoslik –kasb turlari uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik, ish tajribalari orqali erishilgan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir[11;12-b]. Kasbga oid tadqiqotlarni yoritishda "kasbiy shakllanish", "kasbiy tayyorgarlik" kategoriyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq. Dastlab kasbiy shakllanish jarayonining pedagogik jihatlarini shaxs rivojlanish jarayonidan farqlab olishga e'tibor qaratilgan. Birinchi holatda, kasbiy shakllanish shaxs rivojlanishining shakllaridan biri, ikkinchidan esa, kasbiy shakllanish shaxsni rivojlantirish (mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari) vositasi sifatida qaraladi. Har ikki jihat o'rtasida «bir butun - qism» ko'rinishdagi tarbiya, ijtimoiylashuvi mavjud. Kasbiy shakllanish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. O'rganilgan barcha metodik xarakterga ega bo'lgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarda kasbiy shakllanish ongli ravishda kasb tanlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Ayrim mualliflar, shu jumladan, D.N.Arziqulova o'quvchilarning kasbiy shakllanish jarayonini tabaqalashtirilgan ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi [5;22-b]. Ushbu tadqiqotlarda kasbiy yo'naltirilganlikni kasbiy shakllantirish maqsadida tabaqalashtirilgan ta'lim tuzilmasi va mazmunini tashkillashtirish muammolari, tabaqalashtirilgan ta'limning kasb tanlash motivatsiyasiga ta'siri batafsil o'rganilgan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biridir.

Kasbiy tayyorgarlik deganda, mutaxassisning ruhiyati, holati, jismoniy sog'ligi, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga moslik darajasi tushuniladi. Psixologlar mutaxassisning kasbiy tayyorligi - bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir, deya ta'riflaydilar.

Shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonining metodologik tamoyili o'quv - bilish faoliyatini egallash va ilmiy bilimlarini o'zlashtirish tizimidir [6;8-b].

Quyidagilar shaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorlik darajasini belgilaydi: kasbiy faoliyatning psixik asoslari – bilim, ko'nikma, malaka, kasb uchun muhim hisoblangan shaxs sifatlari, uning munosabati, kasbiy imkoniyatlar kabilar.

Shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi bilan belgilanadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi uning tezkorligi, o'zgaruvchanligi, muammoli vaziyatlardan tezda chiqa olishi, ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muhitga moslashuvchanligi, kelishuvchanligi bilan ifodalanadi [15;25-b].

Zamonaviy o'qituvchi singari, tarbiyachi ham tashkiliy, kommunikativ, kreativ, loyihalash, konstruktiv qobiliyatlarni o'z ichiga olgan pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Biroq, davlatimizdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, jamiyatning demokratlashuvi, yangi turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining paydo bo'lishi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorligini kuchaytirish talablarini keltirib chiqardi. Bu o'z navbatida tarbiyachilarni kasbiy konsepsiyasini o'sishiga olib keldi. Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda ayniqsa matematik tushunchalarini o'rgatishdagi pedagogik faoliyatini ikkiga an'anaviy va innovatsion kabi turlarga ajratib olamiz. Birinchisi, bo'lajak tarbiyachining bilimini, kasbiy faoliyatdagi salohiyatini, metodik jihatdan takomillashtirishga, ikkinchisi–bo'lajak tarbiyachi (talaba)larning milliy ong va zamonaviy qarashlarini pedagogik va psixologik jixatdan uyg'unlashtirishga qaratilgan [11;7-b].

Pedagogika fani izohli lug'atida "kasb" terminiga quyidagicha izoh berilgan: "Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, uni jismoniy

140 imkoniyat, aqliy qobiliyat hamda yuridik huquqlarini ta'minlovchi insoniy faoliyat turidir"[15;23-b].

Kasbiy faoliyatni shakllantirish va kasb tanlash masalalari bo'yicha ham bir qancha olimlarimiz o'z ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan Jumladan, pedagog X.Abdukarimov tarbiyachilik kasbiga "Tarbiyachilikdan ustun turadigan, tarbiyachining o'rnini bosa oladigan kasb sohibi bo'lmasa kerak" [4;48-b] – deya ta'rif beradi.

Professor J.Hasanboev bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy faoliyatga e'tibor qaratib, uni quyidagicha izohlaydi: "Kasbiy funksiya –tegishli o'quv muassasalarining bitiruvchisiga tegishli bo'lib, shaxsning hayotda egallagan sohasida faoliyat ko'rsata olish, o'z kasbi doirasida bilimlarini o'zlashtirishi va ularni og'ishmay amalda joriy eta olish faoliyatidir [15;232-b].

Professor M.Ochilov "O'qituvchi odobi" kitobida "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar va talablar bor, bunday axloq kasb (professional) axloqi" [12; 23-b] ekanligini tushuntiradi.

Olim bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Pedagog olim A.Xoliqov o'z tadqiqotida o'qituvchilik kasbi mazmun mohiyatini asoslab: "Pedagogik kasb – bu komil inson sifatida harakatlantiruvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir" [1;23-b], degan fikrni beradi.

Olim B.X.Rahimov o'z tadqiqotida bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilarni kasbiy madaniy munosabatlarini tadqiq etadi, uning fikricha: "Kasbiy madaniy munosabatlar shaxslararo amal qiladigan, ijobiy munosabatlar yechimiga erishishda asosiy vosita, vazifasini bajaradi" [13;20-b] va shaxs faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini tushuntiradi.

Tadqiqotchi G.Boymurodov esa "Pedagogik kasbga tayyorgarlik samarasini ko'proq fanlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda natijasini ko'ra bilish" [8;42-b] da ekanligini ta'kidlaydi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [15;9].

Yuqoridagi olimlar tadqiqotlaridan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Kasbiy faoliyat mazmunini asoslovchi sohalar:

- kasb hunar-ta'lim pedagogikasi (R.X.Djo'raev, S.T.Turg'unov);
- kasbiy bilimdonlik (X.To'raqulov, J.Xasanboev, N.Muslimov, F.Yuzlikaev);
- kasbga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi (N.Saidaxmedov, R. Eshmuxamedov, S.Bozorova, O.Haydarova);
- kasbiy madaniyat (N.Egamberdieva, B.Raximov, Sh.Shodmonova);
- kasbiy mahorat va loyihalashtirish (R.X.Djo'raev, S.T.Turg'unov);
- kasbiy tajriba, kasbiy tarbiya, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy funksiya kabi kasb mazmun va mohiyati hamda qoida-ta'riflar [9;79-b] majmuini yuqorida nomlari ko'rsatilgan olimlarning ishlarida kuzatishimiz mumkin.

Pedagog X.Abdukarimov bo'lajak tarbiyachilarda tanlagan kasbiga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirish muammosiga to'xtalar ekan, bo'lajak tarbiyachida quyidagi axloqiy sifatlarni mujassam bo'lishini ta'kidlaydi:

- bolalarni sevishi;
- o'z kasbiga sadoqatli bo'lish;
- nazariy bilimlarni amaliyotga tadbqiq eta olish[4;48-b].

Pedagogika fanlari doktori B.Rahimov kasbiy madaniy munosabatlar tizimini yaratib, uni pedagogik amaliyotda qo'llash mazmun mohiyatini asoslab: "Bugungi talabada, ayniqsa, o'qituvchida har ikkala munosabatning, ya'ni kasbiy-madaniy munosabatlarning uyg'un va izchil bo'lishi" [13;81-b] ijtimoiy hayotning ehtiyoji deya ta'kidlaydi.

Professor N.Muslimovning mutaxassislar kasbiy faoliyatini tashkil etish borasidagi fikrlari asoslidir: "Shaxsda kasbiy sifatlarning mavjudligi uning mutaxassis sifatida shakllanganlik ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayoni ma'lum bosqichlarda ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi" [11;85-b].

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash borasidagi ilmiy tadqiqotlar fonida professiografiya borasida so'z yuritish mutlaqo tabiiy ko'rinadi. "Kasblar tasviri"– professiografiyani o'rganish kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi.

M.Mahkamova tadqiqotida pedagogik amaliyot mazmuniga alohida e'tibor berib: "Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar xalqimizning milliy-ma'naviy merosidan, ulug' siymolarning muomala odobini shakllantirishga doir ta'limotlaridan va ilg'or zamonaviy tajribalardan foydalanishlari muhim" ligini uqtiradi [10;59-b].

Pedagog S.Bozorova "Oliy ta'limda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi" monografiyasida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi – "Ta'lim oluvchilarda ularning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun muhim shaxsiy sifatlarni, shuningdek, vazifasi bo'yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta'minlaydigan ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan texnologiya" [7;59-b] deya ta'riflaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish–pedagogik muammo sifatida tarbiyachining yetuk mutaxassis sifatidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish asosida o'sib kelayotgan yoshlarni sifatli ta'lim olishlari, hayotda o'z o'rnini topishlari, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti. Elektron manbaa: <https://lex.uz/docs/4154478>
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni O'RQ-595-son. T.: -2019.
3. Abdukarimov X. Professionalnoe vospitaniya lichnosti uchitelya v protsesse nepretyvnogo pedagogicheskogo obrazovaniya. _T.: 1998. – 48 s.
4. Arziqulova D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari: Psix. fan. nom. dis. avtoref. – T.: –2002.–22 b.
5. Bezrukova V.S. Pedagogika – Yekaterinburg: – 2009. – 344 s.
6. Bozorova S. Oliy ta'limda kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi. Monografiya. T.: -2006. -59 b. <http://library.ziyouet.uz/ru/book/download/27844>
7. Boymurodov G. Pedagogik kasbga tayyorgarlik samarasi. Uzluksiz ta'lim jurnali. № 3. T.: -2013. - 42 b.
8. Djuraev R.X., Maxmudov A.X. Sistemnyy podxod k proektirovaniyu modeli lichnosti magistra //nauchnyy jurnal. Fan – Sport: – №4. –T.: - 2010. 12-16 s.
9. Mahkamova M. Qadriyat va tarbiya. Ilmiy to'plam. T.: -2009. 492 b.
10. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. diss.aftoreferat. T.: -2007.-85b.
11. Ochilov M, Ochilova N. O'qituvchi odobi. O'qituvchi. T.: - 2009.-232 b.
12. Rahimov B.X.Bo'lajak o'qituvchida kasbiy madaniy munosabatlarini shakllantirish tizimi. Fan. T.: -2005. 120 b.
13. Turg'unov A.A. Kasb-hunarga yo'naltirish (O'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash) O'quv qo'llanma T.: -2019.- 206 b.

Internet saytlari

14. Nauchno-metodicheskaya issledovatel'skaya deyatelnost studentov pedagogicheskix vuzov pri izuchenii yestestvennonauchnyx dissiplin. <http://elibrary.ru>
15. Protseess formirovaniya i upravleniya matematicheskim razvitiem uchashixsya. Sredstva matematicheskogo razvitiya rebenka: istoriya i sovremennost. Matematicheskoe razvitie doshkolnikov v usloviyax realizatsii novyx gosudarstvennyx obrazovatel'nyx standartov <http://elibrary.ru>